

BOSHLANG'ICH SINFLARDA OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIV O'YIN USULLARIDAN FOYDALANISH

Madraximova Dilorom

*Toshkent viloyati Zangiota tumani
38 IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarni o'quvchilarning nutqini o'stirishda didaktik ta'lim texnologiyalari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: dars, innovatsion texnologiya, interaktiv metod, pedagogik mahorat, interfaol usullar, ta'limiy o'yin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'z ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va ob'yektiv tarzda baholay olishga oid mas'uliyat ham shallangan bo'lishi kerak. O'quvchining o'zi berilgan o'quv materialni modellashtira olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Bu jarayonda boalning o'zi mustaqil tarzda har qanday sxema model bo'la olmasligini tushunib yetishi kerak, bir so'z bilan aytganda unda faraz qila olish ko'nikmasi hosil bo'lishi kerak. Kichik maktab yoshida o'qishga, o'rganishga yo'naltirilgan faoliyat yetakchi mavqega ega bo'ladi. Shu bilan bir qatorda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning rivojlanishida o'yin, sport, ijodiy faoliyat ham muhim o'rin tutadi. Lekin o'qish o'rganish, yani talimiy faoliyat, boshqa barcha faoliyat turlarini muayyan bir maqsadga-bolani mujassam rivojlantirish maqsadiga yo'naltirishi lozim. Jumladan, nutq va savodxonlikni rivojlantirishga, jismoniy taraqqiyotni taminlashga va boshqalar.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilari qiziquvchan bo'ladilar. Shuning uchun o'quvchilarni ona tili va o'qish savodxonligi darslarida kuzatuvchanlikga o'rgatish voqea – hodisalarni eng muhim belgi va xususiyatlariga ko'ra bilishga o'rgatishimiz shart. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga darslar didaktik, ta'limiy psixologik o'yinlar orqali o'tilsa o'quvchilarni tushunishlari osonroq bo'ladi. Hamda shu o'yinlar orqali ularning og'zaki va yozma nutqi rivojlanadi.

Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini o'qituvchi va o'quvchilarni nutqini bolalar harakatini o'z ichiga oladi. Bunday o'yinlardan ona tili va o'qish savodxonligi darslarida bir nechtasini qo'llashimiz mumkin.

“Hikoya” o'yinida, o'qituvchi doskaga bir nechta so'z yozib qo'yadi. O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida hikoya tuzadilar. Hikoya tuzish jarayonida o'quvchilarning lug'at boyligi ortishi bilan birgalikda, gaplarni to'g'ri tuzish, tovushlarni to'g'ri tashkil qilish va mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi. O'quvchilarning vaqt-vaqti bilan rag'batlantirish ularning o'ziga bo'lgan

ishonchini orttiradi. Bu o'yindan ona tili va o`qish savodxonligi darslarida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda, to'garaklarda foydalanish mumkin.

“U kim, bu nima?” o'yinida, stol ustiga bir qancha predmetlar terib qo'yiladi. O'qituvchi shu predmetlardan birortasini ta'riflaydi. O'quvchilar shu belgilar asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar. Bu o'yinning afzallik tomoni shundaki, undan dars davomida o'quvchilar diqqatini jamlash, qo'llarga dam berish maqsadida yoki yangi tovushlar bilan tanishtirish, ona tili va o`qish savodxonligi darslarida yangi mavzuni bayon qilish jarayonida ham foydalanish mumkin. Bu o'yin o'quvchilarda, ziyraklik, sinchkovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, bu o'yindan dam olish daqiqalarida ham unumli foydalanish mumkin.

“Davom ettir” o'yinida, o'qituvchi hikoyani boshlab beradi. O'quvchilar uni davom ettiradilar. Bunda o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyati rivojlanib, bayon yoki insho kabi ijodiy ishlar yozish malakasi rivojlanadi va so'z boyligi ortadi. Bundan tashqari, ularda mustaqillik, o'z kuchiga ishonch hissi rivojlanadi.

“Davom ettir” o'yinida ona tili va o'qish savodxonligi darslarida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.

“Jonli hikoya” o'yinida, o'qituvchi so'zlar yozilgan qog'ozlarni o'quvchilarga tarqatib beradi. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga hikoya qilib beradi. (Qog'ozlarda yozilgan so'zlar birgalikda shu hikoyani hosil qiladi.) O'qituvchi hikoyani ikkinchi marta o'qib berganda o'quvchilar qo'llaridagi qog'ozlarni shunday ketma-ketlikda joylashtirishlari kerakki, qog'ozlarga yozilgan so'zlar bir butun hikoyani hosil qilishi lozim. Bu o'yinni o'tkazishda darslikdagi hikoyalar yoki darslikdan tashqari hikoya va ertaklardan foydalanishlari mumkin. 1-variant: Bahor kelishi bilan havo iliy boshlaydi. Daraxtlar gullab, maysalar ko'kara boshlaydi.

“Quruvchi” o'yini o'quvchilarni guruhlariga bo'lib, darsda o'tilgan mavzuni yoki yangi mavzuni mustahkamlash qismida yoki darsdan tashqari vaqtda o'tkazilishi mumkin. O'qituvchi avvaldan darsga tayyorgarlik ko'rib, qog'ozdan yoki penoplast bo'lakchalaridan “g'ishtchalar” yasaydi va bu “g'ishtchalarga” savol yozilgan qog'ozchalarni yopishtirib chiqadi. “g'ishtchalar” soni o'quvchilar soniga teng yoki ko'p bo'lishi kerak, guruhlariga “minora” yoki “devor” qurishlari uchun joy ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan bola chiqadi va “g'ishtcha” ni olib savolni o'qiydi. Agar savolga bolalar to'g'ri javob topsalar o'zlarining “maydoncha” lariga “g'isht” ni teradilar. Agar noto'g'ri javob bersalar, o'qituvchi “g'ishtcha” ni olib qo'yadi. O'yin shu tahlidda barcha o'quvchilar bittadan “gishtcha” olib bo'lgunlarga qadar davom etadi. “Qurilish maydonchasi” da eng ko'p g'isht tergan o'quvchilar guruhi g'olib hisoblanadi.

So'z o'yini: o'quvchilar guruhlariga yoki qatorlarga ajratiladi. Har bir guruh boshidagi o'quvchiga har xil harf yozilgan qog'oz tarqatiladi. O'yin boshlangunga

qadar guruh ishtirokchilari qog'ozga qanday harf yozilganligini ko'rmasliklari lozim. O'qituvchi buyruq berishi bilanoq, boshlovchi o'quvchilar qog'ozni o'nqlab qarab, unda yozilgan harfni ko'radilar va shu harf bilan boshlanadigan so'z topib turgan o'quvchiga uzatadilar. Guruh yoki qator oxiridagi o'quvchi oxiri tugagach, qog'ozni o'qituvchiga keltirib topshiradi. O'yinni birinchi bo'lib tugatgan vazo'zlarni to'g'ri yozgan o'quvchilar guruhi g'olib sanaladi. Bu o'yindan dars jarayonida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ertaklarda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalqaro baholash dasturi haqidagi jurnallar
2. Jumayev.M. va b.q. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" T-2005 y 312 b
3. Mardanova F.I. «Matematikadan test topshiriqlari» 4-sinf T-O`qit 2007-y